

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilda Jizzax viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 33 323,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yil bilan taqqoslaganda 5,0 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2022- yil narxlariga nisbatan 115,2 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Jizzax viloyatining qo'shgan hissasi 3,1 % ga yetdi.

## 2023- yilda Jizzax viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi





## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da
	2022- yil	2023- yil	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>27 545,4</b>	<b>33 323,3</b>	<b>105,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	26 833,1	32 330,7	104,9
mahsulotlarga sof soliqlar	712,3	992,6	109,1
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>26 833,1</b>	<b>32 330,7</b>	<b>104,9</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>13 948,6</b>	<b>15 917,4</b>	<b>104,0</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>5 164,9</b>	<b>7 151,0</b>	<b>107,3</b>
sanoat	3 695,5	5 477,5	107,4
qurilish	1 469,4	1 673,5	107,2
<b>xizmatlar</b>	<b>7 719,6</b>	<b>9 262,3</b>	<b>105,0</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 508,2	2 041,8	112,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	922,6	1 092,8	109,5
boshqa xizmat tarmoqlari	5 288,8	6 127,7	102,2

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 22 342,1 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 2,8 % ga yuqoridir.

## Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



## Aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % hisobida)





## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2022- yil	2023- yil
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,4	97,0
mahsulotlarga sof soliqlar	2,6	3,0
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>52,0</b>	<b>49,2</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>19,3</b>	<b>22,1</b>
sanoat	13,8	16,9
qurilish	5,5	5,2
<b>xizmatlar</b>	<b>28,7</b>	<b>28,7</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5,6	6,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa	3,4	3,4
boshqa xizmat tarmoqlari	19,7	19,0




2023- yilda hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,0 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,0 % ini tashkil etdi.


Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 49,2 % ni, sanoat tarmog‘i 16,9 % ni, qurilish 5,2 % ni va xizmatlar sohasi 28,7 % ni tashkil qildi.

## Iqtisodiy faoliyat turlaribo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2022- yil



2023- yil



● Yalpi qo‘shilgan qiymat


● Mahsulotlarga sof soliqlar



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 2,0 f.p. (2022- yilda – 1,0 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,0 f.p. (2022- yilda – 1,0 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,4 f.p. (2022- yilda – 0,4 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 1,4 f.p. (2022- yilda – 1,6 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2022- yilda –0,2 f.p.)ga ko'paydi.

## 2023- yil uchun YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)





2023- yilda YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,0 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 49,2 %), sanoatda – 107,4 % (16,9 %), qurilishda – 107,2 % (5,2 %), xizmatlar sohasida – 105,0 % ni (28,7 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 112,0 % (6,3 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 109,5 % (3,4 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,2 % dan (19,0 %) iborat bo'ldi.

## YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % da)

2022- y.

2023- y.



4,2 %

YAHM

5,0 %



1,9 %

Qishloq, o'rmon  
va baliqchilik xo'jaligi

4,0 %



8,2 %

Sanoat

7,4 %



7,0 %

Qurilish

7,2 %




5,8 %

Xizmatlar

5,0 %

2023- yilda YAHM deflyatori indeksi 2022- yildagi narxlarga nisbatan 115,2 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 138,0 % va xizmatlar sohasida – 114,3 % qayd etildi.

## YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilga nisbatan % da)





2023- yilda kichik tadbirkorlik 23 822,5 mlrd. soʻmni tashkil etdi (2022- yilda – 20 749,5 mlrd. soʻm). YAHMdagi ulushi 73,7 % ni (2022- yilda – 77,3 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining oʻtgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining koʻpayishi bilan bogʻliq.

## Kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

